

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNI BARKAMOLLIK RUHIDA TARBIYALASHDA JAHOLATGA QARSHI – MA’RIFAT BILAN KURASHISH TAMOYILI

**Berdiyeva Gulmira Aminovna Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
“Ijtimoiy fanlar” kafedrası katta o‘qituvchisi, Tarix fanlari nomzodi**

berdiyevagulmira@gmail.com

Аннотация. Мақолада Dunyo miqiyosida shiddat bilan kechayotgan bunday jarayonlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan, ma’naviy-ma’rifiy sohalarga ham jiddiy ta’sir o‘tkazmoqdaligi bunday murakkab sharoitda tinchlik, barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda таҳлил қилинган.

Калит сўзлар. Tinchlik, barqarorlik, илм, маърифат, маънавият, сахийлик, бағрикенглик.

ПРИНЦИП БОРЬБЫ С ПРОСВЕЩЕНИЕМ – ПРОТИВ НЕЗНАНИЯ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ СОВЕРШЕНСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

**Бердиева Гульмира Аминовна-Бухарский инженерно-технологический
институт, Старший преподаватель кафедры «Общественные науки»,**

Кандидат исторических наук

berdyevagulmira@gmail.com

Аннотация. В статье подобные процессы, стремительно протекающие в глобальном масштабе, оказывают серьезное влияние на все стороны общественной жизни, в том числе на духовную и образовательную сферы. В такой сложной обстановке сохранение мира, стабильности, укрепление независимости является актуальной задачей. одна из приоритетных задач для каждой страны остается анализируемой.

Ключевые слова. Мир, стабильность, знания, просвещение, духовность, щедрость, толерантность.

THE PRINCIPLE OF FIGHTING ENLIGHTENMENT – AGAINST IGNORANCE IN EDUCATION OF YOUTH IN THE SPIRIT OF PERFECTION IN THE NEW UZBEKISTAN

**Berdiyeva Gulmira Aminovna-Bukhara Institute of Engineering and
Technology, Senior teacher of the "Social Sciences" department Candidate of
historical sciences**

berdyevagulmira@gmail.com

Annotation.. In the article, such processes, which are taking place rapidly on a global scale, have a serious impact on all aspects of social life, including the spiritual and educational spheres. In such a complex environment, maintaining peace, stability, and strengthening independence is one of the priority tasks for every country. remains analyzed.

Keywords. Peace, stability, knowledge, enlightenment, spirituality, generosity, tolerance.

Kirish

Tarixdan ma'lumki, har bir inson qalbida o'z yurtiga sadoqat, fidoiy bo'lish tuyg'usi vatanparvarlikning oliy nishonasi hisoblanadi. Zero, inson uchun eng aziz va muqaddas bo'lgan Vatanni himoya etish, uni sevish va e'zozlash har bir insondan buyuk ma'naviy jasoratni talab etadi. Jahon geosiyosiy maydonidagi o'zgarishlar, globallashuv jarayonlarining tobora avj olishi dunyo jamoatchiligidan tinchlik va barqarorlikni saqlashda muntazam ogoh, sezgir hamda hushyor bo'lish borasida jiddiy fikrlashni taqoza etmoqda. Insoniyat mutlaqo o'zgacha muhit, yangicha talab va ilgarilari kuzatilmagan xavf-xatar hamda tahdidlar quchaygan bir sharoitda yashashiga to'g'ri qelmoqda. Dunyo miqiyosida shiddat bilan kechayotgan bunday jarayonlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan, ma'naviy-ma'rifiy sohalarga ham jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Bunday murakkab sharoitda tinchlik, barqarorlikni asrash, mustaqillikni mustahkamlash har bir davlat oldida turgan ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Zero, bugungi kunda dunyo miqiyosida g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlarning kuchayishi o'z navbatida tahlikali vaziyatni tobora avj olishga zamin yaratmoqda. Mana shunday bir sharoitda tinchlik, barqarorlikni saqlashda turli xil yot oqimlar ta'siriga adashib kirib qolgan yoshlarimiz tarbiyasiga e'tibor qaratish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu haqda fikr yuritganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: "Mamlakatimizda "jaholatga qarshi – ma'rifat" degan ezgu g'oya asosida islom dinining insonparvarlik mohiyatini, tinchlik va do'stlik kabi olijanob maqsadlarga xizmat qilishini targ'ib etish kun tartibimizdagi doimiy masalalardan biri bo'lib qoladi" [1],- deya ta'kidlagani bejiz emas, albatta. Binobarin, mazkur holatda har bir masalani ma'rifat asosida chuqur o'ylab, zararli oqimlarga qarshi kurashda ma'rifat, ma'rifiy bilimlarni o'zida

mujassam etgan buyuk ajdodlarimiz tomonidan bizga meros qoldirgan asarlarini puxta o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Inson ma'naviyatga qarshi qaratilgan jaholat g'aflatga, loqaydlik esa beparvolikka griftor etadi. Natijada, mazkur holat insonni vatan taqdiriga nisbatan daxldorlik tuyg'usini yo'qotish orqali uni ma'naviyatini sundirishga zamin yaratadi. Mazkur holat, o'z navbatida har qanday millat, xalqni o'z taqdiriga raxna soluvchi tahdidlarga nisbatan muntazam ogoh, sezgir va xushyor bo'lishga hamda ularga qarshi ma'rifat va ma'naviyat bilan javob berish borasida jiddiy fikrlashni taqoza etmoqda. Barchamizga yaxshi ma'lumki, hozirgi kunda dunyo shiddat bilan o'zgarib, insoniyatning taqdiri va kelajagiga tahdid solayotgan xavf-xatarlar kuchayib, dunyo miqyosida shafqatsiz raqobat, turli ziddiyat va qaramaqarshiliklar tobora avj olmoqda.

Bugungi kunda globallashuvning shiddatli tus olishi dunyo miqyosida g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlarning tobora avjiga chiqishiga zamin yaratmoqda. Mana shunday bir sharoitda tinchlik, barqarorlikni saqlashda ma'naviyat va ma'rifatga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu haqda fikr yuritganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: "Biz ma'naviyat va ma'rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, ma'naviyati bor inson Vatanni, albatta, yaxshi ko'radi. Vijdon, ma'naviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir. Mana shunday qarash butun xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz tomonidan keng va qizg'in qo'llab-quvvatlanayotgani ma'naviy tarbiyaning naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi"[2]. Binobarin, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev tomonidan mana shunday masalalarga alohida e'tibor qaratilar ekan, bugungi kunda dunyo miqyosida vujudga kelayotgan yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda jamiyatimizda sog'lom muhitni mustahkamlash, ma'naviyat va ma'rifatga e'tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etayotganligi tobora oydinlashmoqda. Zero, millatimiz va xalqimiz mentalitetini o'zida namoyon etuvchi buyuk ma'naviyatimizni asrash xalqimiz

taqdiri va kelajagi, hayot-mamotimiz vazifasi ekanligini anglash o'ta muhim vazifadir.

Hozirgi nozik va ayni paytda, o'ta murakkab sharoitda o'zida yovuz va buzg'unchi g'oyalarni namoyon etuvchi illatlarga qarshi ma'rifat bilan kurashish muhim ahamiyat kasb etadi [3]. Jaholatga griftor etuvchi ekstremizm, xalqaro terrorizm va mutaassiblikka qarshi kurashda ma'rifatni targ'ib etish g'oyasi bugungi kunda dunyo miqyosda bosh mavzuga aylanib ulgurdi. 2017 yil 19 sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida davlatimiz rahbari dunyoda terrorizm tahdidlari, ayniqsa, so'nggi yillarda kuchayib borayotgani, ularga qarshi kuch ishlatish yo'li bilan kurashish usuli o'zini oqlamayotgani, bu borada ko'p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinayotganini, xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etishini alohida ta'kidlagan edi. Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklifi bilan murojaat qilar ekan: "Bu hujjatning asosiy maqsadi – barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham berishga ko'maklashishdan iborat. Ushbu rezolyusiya bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan. Biz mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi inson, uning ehtiyoj va manfaatlarini ta'minlashdan iborat bo'lgan eng muhim ustuvor vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning hal qiluvchi sharti aynan shunda mujassam, deb bilamiz"[4], deya alohida ta'kidlagan edi.

Bugungi kunda Yurtimizning bu sohada olib borayotgan islohatlari dunyo miqyosida o'zga mamlakatlarga namuna bo'layotganligi alohida e'tirof etilmoqda. Bu xaqda fikr yuritganda 2018 yil 12 dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" nomli maxsus rezolyusiya qabul qilinganligini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Mazkur rezolyusiyani qabul qilinishi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning 2017 yil sentyabr oyida Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida ilgari surgan tashabbusning amaliy ifodasi sifatida aytib o‘tish mumkin.

Bu haqda BMTning O‘zbekistondagi doimiy muvofiqlashtiruvchisi, BMT Taraqqiyot dasturining doimiy vakili Helena Freyzer tomonidan bildirilgan fikr e‘tiborga molikdir. Bu xaqda Helena Freyzer: “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” nomli rezolyusiya BMTga a‘zo davlatlar tomonidan bir ovozdan qabul qilindi. 51 davlat O‘zbekiston tomonidan ilgari surilgan konstruktiv taklif, ya‘ni dunyoda mavjud barcha dinlarga nisbatan ma‘naviy bag‘rikenglik madaniyatini kuchaytirishga doir g‘oyani qo‘llab-quvvatladi. Chunki ushbu rezolyusiya bag‘rikenglik bilan birga, madaniy va diniy bilimlarni kuchaytirish tamoyilini ham olg‘a surgan holda, global tinchlik va farovonlik uchun ustuvor yo‘nalish bo‘lib xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir”[5], - deya ta‘kidlashi ayniqsa, Yurtimizda bu borada olib borilayotgan ishlar yuksak darajada ekanligini yaqqol tasdig‘idir. Mazkur holat to‘g‘risidagi ijobiy fikrlarni Bangladesh Xalq Respublikasining O‘zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Mosud Mannon: “Bangladesh Respublikasi har doim tinchlik va totuvlik, diniy bag‘rikenglik tarafdori bo‘lgan. Shu bois, O‘zbekiston rahbari tomonidan ilgari surilgan tashabbusni birinchilardan bo‘lib qo‘llab-quvvatladi. Diniy bag‘rikenglik bo‘yicha O‘zbekiston dunyoda eng namunaviy va o‘rnak bo‘la oladigan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Men O‘zbekistondagi 5 yillik elchilik faoliyatim davomida o‘zga din vakillariga nisbatan g‘araz munosabatni kuzatmadim. Aksincha, barcha din vakillari, millat va elatlar tinch-totuv, ahil va hamjihat yashaydi. Bu O‘zbekiston Prezidenti olib borayotgan siyosat natijasida yurtida diniy bag‘rikenglik muhiti qaror topganidan dalolatdir. Qolaversa, bu masala faqat qonunlar bilan mustahkamlab qo‘yilgani uchun emas, balki ko‘pchiligi islom diniga e‘tiqod qiluvchi O‘zbekiston xalqining boshqa din vakillariga nisbatan doimo hurmat-ehtiromda bo‘lib kelgani bilan ham bog‘liq. Odamlarning turli millat vakillari bilan do‘stona munosabati, avvalo, o‘zaro muloqotlar orqali shakllanadi.

“Ma’rifat va diniy bag’rikenglik” nomli rezolyusiyaning BMT Bosh Assambleyasida qabul qilinishi ana shu ijobiy munosabatlar natijasidir”,- deya ta’kidlasa, Misr Arab Respublikasining O‘zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Amani Al-itr xonim: ushbu muhim rezolyusiyani Misr ham qo‘llab-quvvatladi. Davlatlarimiz o‘rtasida ayni masaladagi tutash nuqta, “bu – O‘zbekiston bilan Misrning diniy totuvlik jamiyat barqarorligida muhim rol o‘ynashini anglab yetganidir. Rezolyusiya tashabbuskori bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning rolini alohida ta’kidlab o‘tishni istardim. Bu O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyat oldida turgan murakkab muammolar yechimini topishda oqilona tashabbusi bo‘ldi”[5], - deya fikr bildirishi bu borada Yurtimizda amalga oshirilayotgan siyosat dunyo miqyosida yuksak e’tirofda ekanligidan dalolat beradi.

Dunyoning turli mintaqa va davlatlarida sodir bo‘layotgan ayanchli voqealar tahlili ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, internet tizimi, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ko‘p hollarda ayrim buzg‘unchi kuchlar qo‘lida turli soxta, zararli g‘oya va mafkuralarni targ‘ib etishning qulay va tezkor vositasiga aylanib qolayotganligini ko‘rsatayotir. Bu kabi tahdidlar milliy va umuminsoniy qadriyatlarning yemirilishiga, zo‘ravonlik, inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, mas’uliyatsizlik, loqaydlik, andishasizlik, behayolik kabi illatlarni ildiz otishiga zamin yaratmoqda. Natijada, odamzotning o‘z tarixiy, diniy, milliy-ma’naviy ildizlaridan uzilib qolishiga sabab bo‘lmoqda. Mazkur holat, jahondagi ko‘plab davlatlarda umumiy tendensiyaga aylanib bormoqda. Ta’lim va ma’rifat bashariyat farovonligining asosiy omili hisoblanadi. Shu bois inson ma’naviy olami, xalqimiz madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish hamda jahon ilm-fani yutuqlari va umumbashariy taraqqiyot tajribalari asosida yovuz va buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi ma’rifat bilan kurashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston o‘zini milliy taraqqiyotning yangi davriga qadam qo‘ydi. Buni barcha sohalardagi tub o‘zgarishlar qatori ma’naviyat, ma’rifatga bo‘lgan munosabatlarda ham ko‘rish mumkin. Ayniqsa, Yurtimizda

keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizda jaholatga qarshi kurashda ma'rifat bilan kurashish borasida ulkan ishlar qilanilayotganligi ayniqsa diqqatga sazovardir. Bu borada, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatlarining yo'lga qo'yilishi mamlakatimizda muqaddas Islom dini qadriyatlari va an'analarini yanada rivojlantirishga zamin yaratmoqda. Ayniqsa mazkur sohada davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar zahirida yurtimizda ta'lim, ilmfan, madaniyat va ma'rifat, ajdodlar merosini o'rganish, qadrlashga bo'layotgan yuksak e'tibor nafaqat mamlakatimiz va mintaqa aholisi, balki jahon hamjamiyati tomonidan ham yuksak tarzda e'tirof etilayotganligi ayniqsa e'tiborga molikdir. Jaholat nafaqat diniy shaklda, balki dunyoviy, dahriylik ko'rinishida ham namoyon bo'ladi. Bunday illatlarga qarshi ma'rifat asosida kurash olib borish, ma'naviyat masalasi o'zbekistonlik barcha sog'lom fikrli kishilarning vijdon ishiga aylanishini davr taqozo etmoqda. Zero, ma'rifat bashariyat farovonligining asosiy omilidir. Shu bois inson ma'naviy olami, xalqimiz madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish hamda jahon ilm-fani yutuqlari, umumbashariy taraqqiyot tajribalari asosida yovuz, buzg'unchi g'oyalarga qarshi ma'rifat bilan kurashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: "Albatta, kechirimli, mehroqibatli bo'lish xalqqa ham, Xudoga ham manzur bo'ladi. Mana shunday ezgu fazilatlar bizning bag'rikeng xalqimizni yanada ulug'laydi. "Jaholatga qarshi – ma'rifat" degan fikrda katta ma'no bor. Bu g'oya faqat diniy tarbiya bilan bog'liq ishlarda emas, balki hayotimizning barcha sohalarida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har bir masalani ma'rifat asosida chuqur o'ylab, xalqqa hurmat bilan, takror va takror aytaman, odamlar fikrini inobatga olib, faqat qonun va adolat mezoniga tayangan holda hal etsak, el-yurtimiz bizdan albatta rozi bo'ladi" [6],- deya ta'kidlashi ayni haqiqatdir. Mana shunday ezgu

ishlarimiz, barcha yurtdoshlarimiz qalbi va ongida sogʻlom diniy dunyoqarash va din toʻgʻrisida holisona fikrlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasiprezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
2. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг йигирма саккиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. <http://uza.uz/oz/politics/prezident-shavkat-mirziyeevningzbekiston-respublikasi-musta-31-08-2019>
3. Мансур Мусаев. Маърифат мутаассибликка қарши кураш демакдир. <http://postda.uz/uzc/news/spirituality/spirituality/8959>
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида нутқ сўзлади <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-boshassambleyasi-20-09-2017>
- 5.Дунё эътироф этган ташаббус. <http://www.uza.uz/oz/politics/dunyeetirof-etgan-tashabbsaus-17-12-2018>
6. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг йигирма саккиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. <http://uza.uz/oz/politics/prezident-shavkat-mirziyeevningzbekiston-respublikasi-musta-31-08-2019>